



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

BADIIY ASARLARDA TUSH TASVIRI

Istamova Shohida Maxsudovna

BuxDPI, f.f.f.d. (PhD), professor

Boltayeva Shahnoza

BuxDPI, magistrant

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarda obraz va qahramonlar ruhiyatida uchrovchi tush motivi haqida soʻz yuritiladi. Tush motivi badiiy asarlar syujetida qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishda hamda syujet voqealarini, syujrtning asosiy boʻgʻinlarini oʻzaro bogʻlashda muhim oʻrin tutadi. U ijodkorga oʻz fikrini aniq va taʼsirchan qilib ifodalashga yordam beradi.

Kalit soʻzlar: motiv, ruhiy kechinma, poetika, qahramon, xarakter.

Rus adabiyotshunos olimi Aleksandr Genis aytganidek: "Insonning ikki dunyosi bor. Birinchi dunyo benihoya rang-barang, koʻriladigan, his qilinadigan, tasavvur va tafakkur qilishga yetmaydigan moʻjizalar boy. Ijodkor oʻzining ikkinchi dunyosini yaratishda ularning baʼzilaridangina foydalanadi. Mana shu birinchi dunyo ichida yana bir dunyo bor, u "ichki tabiat", yaʼni insonning oʻziga ato etilgan ichki moʻjizaviy olamidir". Tush ana shunday moʻjizardan biri hisoblanadi. Shu bois ijodkor oʻz asarida mana shu ikkinchi olamni toʻla, mukammal yoritishga harakat qiladi. Tush badiiy adabiyotning ang qadimiy vositalaridan deyish mumkin. Bu vosita xalq ogʻzaki ijodi naʼmunalaridan to zamonaviy asarlargacha qoʻllanilib kelinayotgan anʼanaviy usuldir. Asarda ijodkor qahramonni kitobxon bilan tanishtirishda nafaqat uning tashqi portretini tasvirlaydi, balki uning ichki dunyosi, ruhiyatini ham tasvirlashga ahamiyat beradi. Qahramonning ruhiy holatini ochib berishda tush tasvirlaridan foydalandi. Bu esa qahramonning xarakterini, ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. Baʼzan tushlarga "taqdir bashoratchisi" sifatida ham qaraladi. Tush qahramonning bugungi holati va ertangi faoliyati, taqdiri masalasi bilan ham bogʻliq boʻlishi mumkin. Oʻzbek adabiyotida koʻpgina asarlarda tush tasviri keltirilgan oʻrinlarga guvoh boʻlamiz. Adabiyotda oʻzining falsafiy qarashlari va oʻziga xos uslub bilan oʻrin egallagan zabardast ijodkor –Oʻtkir Hoshimovning roman va hikoyalarida ham aynan tush tasviri qahramonning ruhiy olamini yoritib berishda xizmat qilganiga guvoh boʻlamiz. Xususan, "Dehqonning bir kuni" hikoyasining bosh qahramoni Muyassarning tush tasvirini olaylik. "U tush koʻradi. Tushida jajjigina qizaloq emish. Oʻrikning shoxiga arqon tashlab argʻimchoq uchayotganmish. Oʻrik qiygʻos gullaganmish. Argʻimchoq har silkinganida uning boshigan bir dunyo gul sochilarmish. Argʻimchoq borgan sari qattiqroq lippillarmish. U borgan sayin balandga, osmon-falakka chiqib tusharmish. Yer ham, osmon ham argʻimchoqning arqoni ham hamma yoq gul emish. Oqish pushtigul emish. U xandon urib, qiyqirib-qiyqirib kularmish. Koʻzlaridan yosh chiqib ketarmish..." Hikoyada berilgan tush tasviri Muyassarning psixologiyasini, yaqin kelajakda hayotida sodir boʻladigan oʻzgarishlarga ishora vazifasini bajaradi. Endigina oila ostonasiga qadam qoʻygan bu obraz nihoyatda xushchaqchaq, quvnoq boʻlishiga qaramay jismidagi charchoqni yengish uchu ruhiy tengillik izlaydi, xayologʻushiga gʻarq boʻladi. Qoʻshni hovlidan eshitilgan alla tovushi uning ich-ichida barcha ayollarga xos boʻlgan onalik hissini qoʻzgʻatib yuboradi. Uning begʻubor, toza xayollari orasida yangi orzular kurtak yozadi. Mazkur tush vositasida Muyassarning taqdirida sodir boʻlajak voqealar nazarda tutiladi. Hikoyaning davomi sifatida yozuvchi uning ikkinchi qismini yaratadi. Bu qismda qahramonlarning hayotidagi tub burilishlar, goh quvonchli goh qaygʻuli kechinmalarni tasvirlaydi. «Tush koʻradi... Bahor emish. Oʻrik gullaganmish. Qizaloq emish, oʻrik shoxiga ilingan argʻimchoqda uchayotganmish. Argʻimchoq silkingan sayin boshiga duv-duv gul yogʻilarmish. Oq, pushti gullar... Shunda... Halimaxon paydo boʻpti. Sochlari yer supuradigan,

kiprigi yuziga tushadigan qizi Halimaxon... "Kel, qizim, kelaqol!- dermish u qo'l cho'zib. Qizini quchog'iga olibdi-yu uchaveribdi-uchaveribdi. Halimaxon uning pinjiga kirib, "ayajon, ayajon" dermish. Arg'imchoq borgan sayin baland havolanarmish... Ona-bola bir-birini quchoqlaganda osmon-falakka uchib ketayotganmish. Negadir Muyassarning yig'lagisi kelarmish".

Yozuvchi ko'proq qahramonlar og'ir vaziyatda qolganda, o'quvchini qahramonning istiqbolida tahlikali vaziyatlardan ogoh qilishda, qahramon ruhiyatidagi ga'alayonli vaziyatlarida ushbu poetik vositaga murojaat qiladi. Qahramonlarning tushida ro'y berga voqealar bilan tanishgan kitobxon ruhiyati asar syujetidagi navbatdagi voqealarni qabul qilishga tayyorlanadi., asar g'oyasini va qahramonlarning ayni paytdagi ruhiyatini yaxshi anglaydi. Hikoyaning birinchi qismida keltirilgan tush tasviri Muyassar va Alijonning porloq ustiqbolini bashorat qilgan bo'lsa, ikkinchi qism ularning taqdiridagi chigalliklar haqida so'zlaydi. Muyassar 16 yoshli behad go'zal, chaqqon, navniholgina qizi Halimaxonni yo'qotishdek og'ir musibatni boshdan kechiradi. Farzandini tuproqqa qo'yishdan og'irroq musibat bo'lmasa kerak?! Muyassar va Alijonning hayotiga qora ko'lanka misol kirib kelgan bu tashvish ,qahramonlar ruhiyatidagi kuchli tushkunlik hissini yozuvchi tush tasviri orqali yanada ochib berishga harakat qilgan. O'tkir Hoshimov katta mahorat maktabiga ega yozuvchi. U tush epizodi orqali o'quvchini faqat bo'lib o'tgan yoki kelajakda kutilishi muqarrar voqealardan voqif qilish emas, balki bu orqali qahramonga bir qancha g'oyaviy-badiiy vazifalarni yuklaydi. Agar shu o'rinda tush epizodi kiritilmaganda Muyassarning ruhiy holati to'la aks etmagan, voqealar zanjiri quruq bayon etilgan bo'lardi.

O'tkir Hoshimov "Dehqonning bir kuni" hikoyasida ruhiy tahlil san'atidan o'ziga xos tarzda mahorat bilan foydalangan. U hikoya qahramonlarining ichki olamini turli vositalar yordamida ochib berar ekan, ushbu vositalar asar g'oyasini ochishda, asarning tasirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedova S. "Obrazlar ruhiyatida tush tasviri". O'zbekiston, 2024.
2. Hoshimov O'. "Shaharlik kuyov", Toshkent "Yangi asr avlodi", 2019.
3. Hoshimov O'. "Hurkitilgan tush", Toshkent "Yangi asr avlodi", 2019.
4. Sulaymonovich, S. F., & Maqsudovna, I. S. (2020). Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews, 7(6), 481-484.
5. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 209-213.
6. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (KAHOOT, EDUCAPLAY KABI PLATFORMALAR MISOLIDA). PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 177-180.
7. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова Шоҳида Махсудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 16-19.4.
8. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 184-186.

“HIKMATNOMA”ASARIDA XALQNING AXLOQIY QADRIYATLARI TALQINI

Ismoilova Sabina Jasurovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati” asarida aks etgan xalqning axloqiy qadriyatlari, ularning badiiy ifodasi va ma’naviy mazmuni tahlil etilgan. Asarda jamlangan maqollar o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, axloqiy mezonlari hamda ma’naviy hayot tamoyillarini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek maqollari, xalq og‘zaki ijodi, axloqiy qadriyatlar, milliy tafakkur, ma’naviy meros, halollik, to‘g‘rilik, ezgulik, xalq donishmandligi.

Аннотация. В данной диссертации анализируются нравственные ценности народа, отраженные в труде «Хикматнома: Аннотированный словарь узбекских пословиц», их художественное выражение и духовное содержание. Собранные в труде пословицы отражают мировоззрение, нравственные критерии и принципы духовной жизни узбекского народа, формировавшиеся веками.

Ключевые слова: узбекские пословицы, народное устное творчество, нравственные ценности, национальное мышление, духовное наследие, честность, правдивость, доброта, народная мудрость.

Abstract. This thesis analyzes the moral values of the people reflected in the work “Hikmatnoma: An Annotated Dictionary of Uzbek Proverbs”, their artistic expression and spiritual content. The proverbs collected in the work reflect the worldview, moral criteria and principles of spiritual life of the Uzbek people formed over the centuries.

Keywords: Uzbek proverbs, folk oral culture, moral values, national thinking, spiritual heritage, honesty, truthfulness, goodness, folk wisdom.

“Hikmatnoma”da xalq og‘zaki ijodi namunalarining insonni ezgulikka chorlovchi, ijobiy fazilatlarni targ‘ib qiluvchi ma’naviy manba sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Xalq og‘zaki ijodi millatning ma’naviy xazinasidir. Unda xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, axloqiy me‘yorlari, orzu-intilishlari mujassamdir. Maqollar esa ushbu xazinadagi eng qadimiy, eng donolik bilan sug‘orilgan janrlardan biri hisoblanadi.

Hikmatnoma– o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati asari o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Asar nafaqat til va ma’no nuqtayi nazaridan, balki xalq tafakkurining axloqiy mezonlarini o‘rganish uchun ham bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

“Hikmatnoma”da jamlangan maqollar xalqning hayotiy tajribasi va axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Ularning har biri insonni ezgulikka, mehnatsevarlikka, rostgo‘ylikka, sabr va adolatga chorlaydi. Masalan, “To‘g‘rilik bilan yurgan elda yuzing yorug‘ bo‘lur” yoki “Halollik – eng ulug‘ boylik” kabi maqollar xalqning halollik va poklikni eng oliy fazilat deb bilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, asarda ota-ona hurmati, do‘stlik, mehr-oqibat, sabr, adolat va mehnatga da‘vat kabi qadriyatlar keng yoritilgan. Maqollar orqali xalq insoniylikning haqiqiy mezonini belgilaydi: kimki axloqiy jihatdan pok bo‘lsa, u jamiyatda obro‘-e‘tibor topadi.

“Hikmatnoma”da axloqiy qadriyatlar nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy uyg‘unlik asosida ham talqin qilinadi. Maqollarda insonning o‘zgalarga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va burchi haqida chuqur falsafiy fikrlar ifoda topgan.

Masalan, “Yaxshilik qil – dengizga ot, baliq bilmasa, Xoliq bilar” maqoli xalqning ezgulikni kimgadir minnat uchun emas, balki Alloh rizosi uchun qilish kerakligini anglatadi. “Hikmatnoma”da aks etgan axloqiy qadriyatlarning yana bir muhim jihati — ularning tarbiyaviy ahamiyatidir. Maqollar asrlar davomida xalq orasida og‘zaki tarbiya